


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**



**FARMAKOGNOZIYA
MODULIDAN**

LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI UCHUN
*(5510500- farmatsiya (turlari bo'yicha),
60910800- sanoat farmatsiyasi (turlari bo'yicha)
va 60911000-dori vositalarini standartlash,
sertifikatlash va sifat menejmenti talabalari
uchun)*

**USLUBIY QO'LLANMA
I QISM**



TOSHKENT-2023

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI



"TASDIQLAYMAN"

Toshkent farmatsevtika instituti
o'quv hujjatlar bo'yicha prorektor v.v.b.
dotsent Mamatqulov Z.U.

2023 y.

FARMAKOGNOZIYA MODULIDAN
LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI UCHUN

USLUBIY QO'LLANMA

(I-QISM)

TOSHKENT-2023

Tayrovchilar:


k. f. d., dotsent N. I. Farmonova
farm. f. d., professor T. F. O'rmonova
farm. f. d., professor X. M. Kemilov
farm. f. n., dotsent M. Sh. Muxamedova
farm. f. n., dotsent M. A. Xoljaeva
farm. f. n., dotsent D. Q. Po'latova
farm. f. n., dotsent M. T. Mullajonova
falsafa faolari doktori, (PhD) dotsent G. Q. Rahimova
assistent M. K. Muhiddinova
assistent N. B. Aripova

Taqrizechilar:

Toshkent farmatsevtika instituti toksikologik kimyo kafedrasini mudiri,
farm. f. d., dotsent Z. U. Usmanaliyeva
O'zR FA akademik S. Yu. Yunusov nomidagi O'simlik moddalari
kimyosi instituti, lipidlar laboratoriyasi mudiri, k. f. d. S. Z. Nishanbayev

Uslubiy qo'llanma farmakognosiya kafedrasini 2022 yil 25.12. 8 - son yig'ilishida muhokama qilindi
va ma'qullandi.

Kafedra mudiri dotsent



N.T. Farmanova

Uslubiy qo'llanma soxa uslubiy kengashining 2023 yil _____ dagi _____ - son yig'ilishida muhokama
qilingan va tasdiqlashga tavsiya qilingan.


Soha uslubiy kengash raisi:



Usmanaliyeva Z.U.

Uslubiy qo'llanma Toshkent farmatsevtika instituti Markaziy uslubiy kengashining 2022 yil _____
son yig'ilishida muhokama qilindi va ma'qullandi.

Kengash kotibasi



S.R. Xadjimetova

MAVZU: FARMAKOGNOSTIK TAHLIL USULLARI

Mavzuning ahamiyati. Amaliy farmakognoziyaning asosiy maqsadi dorivor o'simlik mahsulotlarining chinligi va sifatlilikini aniqlashdan iborat.

Dorivor o'simlik mahsuloti *chinligi* deb uni o'z nomiga to'g'ri kelishiga aytiladi.

Dorivor o'simlik mahsuloti *sifatlilik* deb uning tegishli me'yoriy-texnik xujjat talablarga javob berishi tushuniladi.

Dorivor o'simlik mahsulotlarini tahlil qilish dastlab ularning chinligini aniqlashdan boshlanadi. Chunki mahsulotning o'z nomiga to'g'ri kelishi aniqlanmay, ya'ni tekshirishga qanday mahsulot yuborilganligini bilmay turib, mahsulotning yuqori sifatlilik, tarkibidagi biologik faol moddalarning miqdorini aniqlash va uni me'yoriy-texnik xujjat talablariga javob berishi to'g'risida fikr yuritish xam mumkin emas.

Dorivor o'simlik mahsulotlarining chinligini aniqlash makroskopik, mikroskopik va kimyoviy tahlil (kimyoviy reaksiyalar) yordamida amalga oshiriladi.

Mazkur uslubiy qo'llanma yuqorida qayd etilgan farmakognostik tahlil usullarini o'zlashtirishga yordam beradi.

Ushbu mavzu bo'yicha olingan bilim va ko'nikmalar talabalarga o'quv yili davomida turli biologik faol moddalarni saqlaydigan dorivor o'simlik mahsulotlarining chinligini aniqlashga imkon yaratadi.

Mavzu bo'yicha har bittasi 4 soatga mo'ljallangan 3 ta laboratoriya mashg'uloti o'tkaziladi.

Laboratoriya mashg'ulotining texnologik xaritasi

Mavzu	Farmakognostik taxlil usullari
Maqsad va vazifalar	Talabalarga turli morfologik guruhlariga kiruvchi dorivor o'simlik mahsulotlarini farmakognostik tahlil qilish usullarini o'rgatish. Talabalarni mustaqil ishlashiga va aniq xulosa chiqarishga erishish.
O'quv jarayonining mazmuni	Turli morfologik guruhlariga kiruvchi dorivor o'simlik mahsulotlarining chinligini aniqlashda qo'llaniladigan makroskopik, mikroskopik va kimyoviy (sifat reaksiyalar) tahlil usullari.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<u>Usul</u> – «aqliy xujum», «munozara», «tushuntirish», «kichik guruhlarda ishlash», «muammoli vaziyatlar» <u>Shakl</u> – laboratoriya mashg'uloti, guruhlarda va yakka holda <u>Vosita</u> – tarqatma materiallar, jadvallar, dorivor o'simlik gerbariy va slaydlari, dorivor o'simlik mahsulotlarining